



O'ZBEK ADABIYOTIDA ABDULLA QAHHOR IJODINING AHAMIYATI

Sulhonberdiyeva Shodiya Shuhrat qizi

TMI Bank ishi fakulteti

I bosqich talabasi

O'ylashimcha, inson uchun so'zlarni o'z o'rnida mos va xos qo'llay bila olish chinakam mahorat belgisi bo'lsa kerak. Negaki, so'z hali jilovlanmagan arg'umoqqa o'xshaydi. Bir qarashda qo'lga o'rgatish mushkul, lekin uning mahoratini uni jilovlab olgandan keyin sayr qilganingizdagina bilasiz. Ana shu arg'umoqni mehri ila jilovlab, u bilan yuksak cho'qqilarni zabt etgan inson-Abdulla Qahhor. Darhaqiqat, uni chinakam so'z sehgari desak bo'ladi. So'zni bir qurol desak, aksincha, Abdulla Qahhor o'z qalami bilan undan foydalanib, bir qancha mo'jizalar yaratibgina qolmasdan, o'z quroli bilan aniq nishonga ham urgan ijodkordir.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotiga ajoyib hikoyanafis va ushbu janrning tengsiz ustasi bo'lib kirgan. Uni hatto o'zbek Chexovi deb ham nomlashgan. Uning hikoyalarida o'zbek xalqining eng yaxshi jihatlari-sog'lom aqli, hajviylikka yo'g'irilgan hayotiy donoligi namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hikoyalarining tili qisqa, naqlarga boy va an'anaviy o'zbek nasriga xos dabdaba va bajamdorlikdan xoli ekani bilan ajralib turadi. Hikoyalarida kam so'z bilan kata voqaelarni tasvirlash san'atini namoyon qildi. Uning o'zi ham shunday deydi. "Yozuvchi shunday qudratli kuchga ega bo'lishi kerakki, bahorning butun go'zalligini bitta dovuchcha ichiga qamay olsin". Abdulla Qahhor esa xuddi shu kuchga ega san'atkor edi. Uning ijodini O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov shunday baholaydi "Adabiyotimiz tarixida betakror siymolardan biri Abdulla Qahhordir. Bu zot adabiyotga kirib kelgan damlaridanoq so'z sehgari sifatida e'tirof etilgandi. U jahon adabiyotida ham eng taniqli yozuvchilar safida turadi".

1935-yilda esa birinchi hikoyalar to'plami - "Olam yasharadi" ham kitobxonlar tomonidan qizg'in qarshi olindi. Bundan tashqari uning "Anor", "Bemor", "O'g'ri" hikoyalari ham o'zbek nasrida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunisi ham e'tiborliki, u o'z hikoyalarida epigraf qo'llashda va xalq metal, maqollalardan ham unumli foydalana olgan. Masalan, "Bemor" hikoyasida osmon yiroq yer qattiq, "O'g'ri" hikoyasida esa "Kambag'alni uyi kuysa kuysin-u hokizi yoqolmasin", bularning hammasi o'sha dam va hikoya mazmunidan kelib chiqib qo'llangandir.

Chindan ham Abdulla Qahhor hayotida ham, badiiy ijodida ham o'z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashganso'z san'atkor, o'tkir qalami mahsuli bo'lmish har bir asari, mehnat va zargarlik bilan yaratilgan har bir asarida boqiy haqiqat muhri va shukuhi bor. Haqiqat mangudir. Ammo har doim ham yuzaga chiqavermaydi, ya'ni o'zi o'zni mavjud bo'lsa ham, har doim ko'rinib turmaydi. Agar oshkora bo'lgudek bo'lsa, olamni nuri birla yoritib, dillarni charog'on qiladi. Shuning uchun ham uni yulduzga qiyosladim. Abdulla Qahhor ham haqiqat kuychi-yu, ammo oshkora so'zlar bilan shundoqgina uni bayon etib qo'ymaydi. Shu boisdan ham u adabiyotning so'nmas yulduzidir.



Adabiyotni bir dengizga qiyoslasak, uning javohirlari soʻz boʻladi. Mana shu javohirlarni saralab saralab, oʻz oʻrnida qoʻllay oladigan inson esa Abdulla Qahhordir. Ana shunday durdona asarlardan biri "Oʻtmishdan ertaklar" qissasidir. Unda oʻz xotirasida chuqur iz qoldirgan odamlar haqida soʻzlaydi. Uning oʻzi ham "Men yoshligimda guvoh bolganlarimni yozdim. Haqiqatni, faqat haqiqatni yozdim. Agar bu haqiqat siz-zamonaviy yoshlarga daxshatli koʻrinsa, demak, men bu achiq haqiqatimni oxirigacha haqiqat hikoyasi – ertak deb nomlayman" degan. Yana bir beqiyos asari "Sarob" ramanidir. Asarda 20-yillar oxiri, 30-yillarning boshlaridagi oʻzbek ziyolilari maʼnaviy qiyofasini, ular orasidagi ayrim shaxslarning oʻjizligi va puch xayollar izmida oʻtgan umrini badiiy gavdalantirib bergan – "Sarob" yozilgan, u kitob holida chiqqan paytlari degan edi adib suhbatlarining birida, sochimda birorta ham oq tola yoʻq edi, demak, johil tanqidchilarning betinib toʻqmoqlari tufayli romanning ikkinchi nashriga qadar sochimda birorta ham qora tola topilmadi. U qancha mahoratli boʻlmasin uning javohirlariga baxillik koʻzi bilan qarashi esa Abdulla Qahhorning yanada salohiyatli ekanini ochib beradi. Negaki, tengsiz javohirlarga hamma qiziqadi, uni oʻziniki qilgisi yoki oʻzinikidan-da koʻp va xoʻp boʻlishini istamaydiganlar, Abdulla Qahhorning qimmatbaho olmoslariga koʻz tikadi. Shuni ham aytib oʻtish kerakki, u nafaqat oʻzbek adabiyoti dengizidan, balki jahon adabiyotining javohirlaridan ham bebahra qolmaydi. Maksim Gorkiyning "Mening dorilfunlarim", N.V. Gogolning "Revizor", Tolstoyning "Urush va tinchlik" romani va boshqa bir qator asarlarini tarjima qilib, oʻz xazinasiga yana koʻproq marvaridlar qoʻshdi.

Teranroq oʻylab qaraydigan boʻlsak, Abdulla Qahhor bosib oʻtgan hayot yoʻli ham, ijod yoʻli ham, vijdon yoʻli kabidir. U soʻngi nafasigacha millat dardi bilan yashadi. Shuning uchun ham unga ogʻir boʻlgan. Mamlakatlarda toza fikrlaydigan odamlar kamayib ketgani, shular ham iqtidorini yangi haqiqat izlashga emas, eskilarini takrorlashga sarf aylaganiga qaramay, Abdulla Qahhor doimo ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan. Uning ijodiy nafasidan, har qanday gʻirromlik titragan, tubanlik oʻzini panaga tortgan. Unga tish qayraganlar esa yuzlariga niqob tortishga majbur boʻlishgan. Negaki, u bilan yuzma-yuz kurashishga har kimning ham yuragi dov bermagan. Uning borligi millatning ham davlati, ham sarvati, ham shavkati boʻlgan. Uning yana bir salohiyati-soʻzga "xasisligi". Necha sahifasidan iborat ekanidan gʻururlanib adiblarga "Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talent kerak. Lekin yozilgan narsani oʻchirish, kitobxonga zarur narsagina qoldirish uchun talantning oʻzigina kifoya qilmoqda"-deydi. Fikrimcha, Abdulla Qahhorga xos sokinlik, mulohazakorlik va teranlikka yetishmoq uchun qancha bilim, mushohada, qancha hayotiy tajriba va dard zarur ekan. Shu davrida shoir, yozuvchilar koʻp edi. Ammo ular orasida Abdulla Qahhorga oʻxshab oʻzining soʻziga oʻzi hokim boʻlgan, har qanday vaziyatda ham mustaqil fikrlaydigan ijodkor insonni kam uchratdim. Haq va haqiqat qarshisida tili qisiq, yuzi shuvut boʻlmagan yozuvchi borki, barchasi oʻz soʻziga oʻzi hokimdir. Abdulla Qahhor shunday benazir yozuvchi edi. Shuning uchun ham uning mehnatlari toʻgʻri baholanib, 1968-yilning 25-may kuni unga "Oʻzbekiston xalq yozuvchisi" unvoni oʻlimidan soʻng "Buyuk xizmatlari uchun" order bilan taqdirlangan. 2007-yil Abdulla Qahhor tavalludining 100yilligi keng nishonlangan. Toshkentda oʻzbek adabiyoti rivojiga bebaho hissa qoʻshgan chinakam xalq yozuvchisiga aylangan ijodkorning haykali



o'rnatilgan. Bularning barchasi adib xotirasiga yuksak ehtiromning bir ko'rinishidir. Uni ko'proq ustoz deya xotirlashadi. O'z davrida ham bir qancha yozuvchilarga to'g'ri yo'nalish berib o'tadi. Esingizda bo'lsa, yosh yozuvchi O'tkir Hoshimov ham "Chol havosi" qissasi bilan adib nazariga tushadi. U har doim shunday ta'kidlaydi. Yozuvchining vazifasi yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bolish bilangina cheklanmaydi, uning vazifasiga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posponi bo'lish ham kiradi.

Umrini adabiyotga bag'ishlagan adib, bir umr adabiyot zarvaraqlariga muhrlandi. Haligacha unda yashab kelmoqda, hali-hanuz qalblarda yashaydi mangu. Muhtasar qilib aytganda, Abdulla Qahhor ijodiy merosining ilmiy-adabiy tadqiqi va madaniyati talqini masalasi davrlar oshsada, o'zining yorqin va ohanrabod qirralarini namoyon eta boraveradi. Bu istiqlol davri adabiyotshunosligi, jumladan, qahhorshunosligining tanlagan yo'li. Yuqorida ko'rib chiqqanimiz-yozuvchi asarlari tadqiq etilgan ilmiy-nazariy manbalar nafaqat uning hassos ijodkor, badiiy tafakkur yetuk adib va talabchan sinchi, balki haqgoy va insonparvar shaxs sifatida qiyofasini ham ochib bergan yaratilganlar o'laroq qahhorshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur manbalardagi xolislik va ishonchlilik yozuvchining ma'naviy siymosi andozalariga munosib ekani ayni haqiqatdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor shaxs va ijodkor / Toplovchi va so'z boshi muallifi f.f.n. O. Jo'raboyev
2. Ziyonet.uz internet sayti
3. Google internet sayti
4. 7- sinf adabiyot darsligi
5. A'zam A. Mansur dard. "Abdulla Qahhor shaxs va ijodkor" toplamidan